

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**QORAKO‘LCHILIK VA CHO‘L EKOLOGIYASI ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI**

TORESHOVA AMINA UBBINIYAZOVNA

**QORAQALPOG‘ISTON SHAROITIDA ECHKILARNING GO‘SHT
HAMDA SUT MAHSULDORLIGI POTENSIALIDAN
FOYDALANISHNING ILMIY VA TEXNOLOGIK ASOSLARI**

**06.02.03 – Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab
chiqarish texnologiyasi**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of the abstract of doctoral dissertation (DSc)

Toreshova Amina Ubbiniyazovna

Qoraqalpog‘iston sharoitida echkilarning go‘sh t hamda sut mahsuldorligi
potensialidan foydalanishning ilmiy va texnologik asoslari.....5

Торешова Амина Уббиниязовна

Научно-технологические основы использования мясо-молочного потенциала
продуктивности коз в условиях Каракалпакстана.....31

Toreshova Amina Ubbiniyazovna

Scientific and technological bases of using the meat and dairy potential of goat
productivity in the conditions of Karakalpakstan59

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....63

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**QORAKO‘LCHILIK VA CHO‘L EKOLOGIYASI ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI**

TORESHOVA AMINA UBBINIYAZOVNA

**QORAQALPOG‘ISTON SHAROITIDA ECHKILARNING GO‘SHT
HAMDA SUT MAHSULDORLIGI POTENSIALIDAN
FOYDALANISHNING ILMIY VA TEXNOLOGIK ASOSLARI**

**06.02.03 – Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab
chiqarish texnologiyasi**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.DSc/Qx325 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy Kengash veb sahifasida (uz.tdau.uz) hamda “ZiyoNet“ Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Bazarov Soli Rahmatovich
qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ro‘ziboyev Nuraddin Raximovich
qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor

Nasirillayev Baxtiyar Ubaydullayevich
qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor

Omonov Mamatqobul Ismailovich
biologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

**O‘zbekiston Respublikasi veterinariya
va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02 raqamli ilmiy kengashning 2025 «22» dekabr soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 2-uy. Tel.: (99871) 260-48-00; faks: (99871) 260-38-60; e-mail: tuag-info@edu.uz) Toshkent davlat agrar universiteti ma‘muriy binosi. 2-qavat, anjumanlar zali.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (№ 555424 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 2-uy. ToshDAU ARM binosi, 1-qavat. Tel.: (99871) 260-50-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «10» dekabr kuni tarqatildi.
(2025-yil «11» noyabrdagi № 44 - raqamli reyestr bayonnomasi)



Sh.R.Umarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
q.x.f.d., professor

A.N.Batirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, q.x.f.d., dotsent

B.U. Nasirillayev
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy
kengash qoshidagi bir martalik ilmiy
seminar raisi o‘rinbosari, q.x.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunga kelib jahon miqyosida mahsuldor echki zotlarini ko'paytirish, parhezboq va shifobaxsh echki go'shti hamda sut mahsulotlarini yetishtirish borasida ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jahon oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti "FAO" ma'lumotlariga ko'ra, «...hozirga kelib dunyo bo'yicha echkilar soni 217,7 million boshni tashkil etib, mahsuldor echkilar soni bo'yicha Xitoy Xalq Respublikasi (170993 ming bosh) va Hindiston (120600 ming bosh) yetakchi o'rinni egallab kelmoqda»¹. Dunyoning turli mintaqalarida echkilarni ko'paytirish va ular mahsulotlaridan ratsional foydalanish orqali aholini oziq-ovqat mahsulotlari hamda sanoat xomashyosiga bo'lgan talabini qondirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Echkilarning moslashuvchanlik, yashovchanlik, serpushtlik, tez yetiluv xususiyatlarining yuqoriligi hamda urchitish va saqlash sharoitlarining osonligi bilan bir qatorda go'sht shuningdek sut mahsulotlarining parhezboqligi, jun, tivit va teri mahsulotlarining qimmatbaholigi, xaridorligi iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lib mahsuldor echki zotlarini ko'paytirish ularni turli hududlarga moslashtirish borasidagi tadqiqotlar salmog'ini ko'paytirish bugungi kunning dolzarb muammolari bo'lib hisoblanadi. Echkichilik rivojlangan davlatlarda zotdor echkilarni yaratish va ko'paytirish, mavjudlarini irsiy hamda mahsuldorlik xususiyatlarini takomillashtirish orqali yuqori genetik potensialga ega bo'lgan echki podalarini yaratish borasida tadqiqotlar olib borilmoqda. O'z navbatida Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkmaniston kabi qo'shni davlatlarning yirik chorvachilik markazlarida turli mahsuldorlik yo'nalishlaridagi echkilarni reproduktiv, biologik, go'sht va sut mahsuldorlik kabi xo'jalik qimmatli belgilarini yaxshilashda, yaylovlarni to'g'ri tanlash, echkilarni to'laqonli oziqlantirishga yo'naltirilgan tadqiqotlarni kengaytirish hamda parvarishlashning ilmiy asoslarini yaratish muhim amaliy ahamiyatga ega.

Respublikamizda keyingi yillarda aholining oziq-ovqat havfsizligini ta'minlash, chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabini to'la qondirish, turli assortimentdagi ekologik toza go'sht, sut va pishloq mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirishga qaratilgan keng miqyosdagi chora-tadbirlar amalga oshirilib, jumladan xorijdan sut va go'sht mahsuldorligi yuqori echki zotlarini olib kelinib ularni turli hududlarga moslashtirish bilan bir qatorda, mahalliy echki zotlari bilan chatishtirish ishlari amalga oshirilib kelinmoqda. «...chorvachilik sohasida zamonaviy innovatsion ishlanmalarni joriy etish, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish»² borasida topshiriqlar berilgan. Yuqoridagilardan kelib chiqib, mamlakatimizning tog'li, adir va cho'l sharoitlarida echkilarning go'sht, sut, jun mahsuldorligini oshirishga qaratilgan texnologik tadbirlarni ishlab chiqish va joriy qilish, ayniqsa, cho'l hududlarida yashovchi aholining ijtimoiy-iqtisodiy holatini

¹<https://www.fao.org/statistics/ru>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60 sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

yaxshilashni ta'minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar salmog'ini kengaytirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi PQ-120-sonli «O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026-yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida»gi, 2022-yil 8-fevraldagi PQ-121-sonli «Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida» gi va 2023-yil 24-avgustdagi PQ-285-sonli «Chorvachilikda identifikatsiya qilish tizimi va naslchilik sohasini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi hamda 2025-yil 30- yanvardagi «Chorvachilik va parrandachilikni qollab-quvvatlash, sohada yuqori qo'shilgan qiymat yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-34-sonli qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Stavropol davlat agrar universitetida Zaanen zotli echkilarning laktatsiya davridagi konstitutsional, mahsuldorlik va ayrim biologik xususiyatlari, irsiylik va o'zgaruvchanlik darajalari, ularning oziqlantirish va saqlash sharoitlariga bog'liqligi (Stavropol o'lkasi, Rossiya), qo'y va echkilarning sut va go'sht mahsuldorligi hamda pushtdorlik ko'rsatkichlarini yaxshilash borasida bir qator tadqiqotlar olib borilgan (Butun ittifoq chorvachilik instituti, Rossiya)³, Qozog'iston qorako'lchilik ilmiy tadqiqot instituti olimlari tomonidan qoraqalpoq sur qo'ylarining moslashuvchanlik, o'sish va rivojlanish, mahsuldorlik hamda irsiy va seleksion xususiyatlari, muhim belgilarning korrelyatsion bog'liqlik va irsiylanish ishlari bajarilgan (Qozog'iston qorako'lchilik ilmiy tadqiqot instituti, Almata)⁴, Turkmanistonning turli mintaqalarida qo'y va echki zotlarini ko'paytirish ularning reproduktiv biologik va mahsuldorlik imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish borasida bir qator ilmiy tadqiqotlar o'tkazilib ijoyib natijalarga erishilib kelinmoqda. (Turkmaniston chorvachilik instituti, Ashxabad)⁵, Tojikiston davlat agrar universitetida mahalliy echkilarning har xil mahsuldorlik yo'nalishlaridagi mahalliy echkilar bilan qiyoslagan holda moslashuvchanlik ko'rsatkichlari, yashovchanlik va yuqori mahsuldorlik sifatlarini o'rganish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar (Dushanbe)⁶. Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot institutida xorijdan keltirilgan sut yo'nalishidagi

³ Булатов А.С. Конституциональные, продуктивные и некоторые биологические особенности зааненских коз разных лактаций: диссертация. диссертация...канд. с.х. наук: Ставрополь, 2004. - 128 с.

⁴ Н.С.Гигинейшвили. Племенная работа в цветном каракулеводстве. Изд. «Колос», Москва, 1976,188 с.

⁵ Умирзаков Т.У. Изменчивость признаков и селекции каракульских овец. Алмата.1992.232 с.

⁶Сафаров Т. С. Хозяйственные и биологические особенности местных коз Таджикистана. Автореф.дис.канд.с-х.наук. Душанбе, 2017, С.24.

echkilarning zot ichidagi yangi tizimlari va oilalarini yaratish maqsadida ilmiy tadqiqot ishlar Andijon viloyati Oltinko‘l tumanidagi Baxt imkon rivoj chorva fermer xo‘jaligida olib borilib, 3 ta yangi tizim va 14 ta oilalar yaratilgan. Angor zotli echkilar genofondini saqlash, jun mahsuldorligi yuqori suruv va liniyalar yaratish bo‘yicha 2021-2023-yillar ilmiy tadqiqotlar Namangan viloyati Chust tumanidagi “Chust dasht oq suv” fermer xo‘jaligida tadqiqotlar olib borilgan. Angor zotli echkilarda tanlash usullari qo‘llanilib jun mahsuldorligi yuqori takalardan 2 bosh avlodboshi va 31 boshdan iborat 2 guruh ona echkilardan tadqiqot guruhlari shakllantirilgan (Toshkent viloyati, Qibray tumani)⁷. Qo‘ychilik va echkichilik rivojlangan dunyoning turli hududlarida echkilarning xo‘jalik qimmatli belgilarini yaxshilab borish borasida doimiy ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekistonda P.F.Kiyatkin, A.A.Raximov, F.H.Mamadaliyev, S.Yu.Yusupov, M.Sh.Ismailov, B.A.Svanqulov va boshqalarning tadqiqotlariga ko‘ra mahalliy echkilarining go‘sh, sut va jun mahsuldorligi, xo‘jalik va biologik xususiyatlari, zotdorlik, oziqlantirish va saqlash texnologiyalariga bog‘liqligini aniqlash va mahsuldorligini oshirishga doir ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. O‘zbekiston Respublikasida echkilarning turli zotlari olib kelinib, mahalliy echkilar bilan birga ko‘paytirilmoqda.

Jumladan, xorijiy olimlar Ye.V.Eydrigevich, A.I.Janderkin, M.T.Nuraliyev, Ye.Musajanov, B.T.Kulatayev, I.G.Lebedev, G.G.Zelenskiy, I.Ye.Bixovskaya, M.D.Zakirov, D.E.Ergashev, F.F.Kosimov, S.Obidjanov, A.B.Karakulov, N.Djumabekov, I.A.Almeev, Ye.M.Yerman, A.A.Shustovalar, S.P.Urusov, A.S.Shuvarikov, A.I.Chikalyov, A.I.Eroxin, Yu.A.Yuldashbayev, V.K.Toshev, I.Novopashina, L.P.Moskalenko, H.Singh, Rose, J.F.Morgan, H.Hoste va boshqalar tomonidan echkilarning moslashuvchanlik xususiyatlari, sut mahsuldorligi va sut sifati hamda ekologik-iqlim, genetik-paratipik omillarga bog‘liqligi o‘rganilgan.

Mamlakatimizdagi barcha hududlarda urchitiladigan mahalliy echkilar bo‘yicha maqsadga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot va seleksiya-naslchilik ishlari talab darajasida olib borilgan. Qoraqalpog‘istonning xorijdan keltirilgan zotli echkilarni yil davomida yaylovlarda hamda komplekslarda saqlash sharoitida ularning foydali xo‘jalik belgilari va biologik xususiyatlari yetarli darajada o‘rganilmagan. Yuqoridagilarni inobatga olib, mahalliy echkilar bilan hamohang xorijdan keltirilgan Zaanen va Mursia-Granada zotli echkilarning sut va go‘sh mahsuldorligini xususiyatlarini o‘rganish, optimal texnologik usullarni ishlab chiqish, kichik fermer xo‘jaligida naslchilik ishlarini olib borish, go‘sh va sut ishlab chiqarishni takomillashtirish yetarli darajada o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialining tematik rejasiga kiruvchi

⁷ ЭШМАТОВ И.Я., ЭШМАТОВА Ш.И. ЧПИТИ, International scientific and practical conference “Actual problems of livestock development, modern methods and development prospects” September, 26-27, 2024.

«Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharoitida Avstriyadan keltirilgan «Zaanen» zotli naslli takalar bilan mahalliy echkilarning genofondini yaxshilash asosida mahsuldor echkilar podasini yaratish» tadqiqot mavzusi doirasida bajarilgan (2022-2024 yy.).

Tadqiqotning maqsadi xorijdan keltirilgan «Zaanen» va «Mursia-Granada» zotli echkilarning biologik hamda mahsuldorlik ko‘rsatkichlarini mahalliy echkilar bilan tahliliy o‘rganish asosida ularni mahalliyashtirish hamda go‘sht va sut mahsuldorligini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Xorijdan keltirilgan «Zaanen», «Mursia-granada» zotli va mahalliy echkilarning xo‘jalik qimmatli ko‘rsatkichlarini baholash;

echkilarning yoshi va qo‘shimcha oziqlanish miqdorini ularning reproduktiv qobiliyatiga ta‘sirini aniqlash;

yaylovda parvarishlanayotgan echkilar yoshining sut mahsuldorligiga ta‘sirini aniqlash;

yil fasllari bo‘yicha xorijiy zotli va mahalliy echkilar go‘sht va suti mahsuldorligini fizik-kimyoviy va texnologik xususiyatlarini o‘rganish;

turli yosh davrlarida bichilgan xorijiy zotli va mahalliy takalarining (sarka) go‘sht mahsuldorligini aniqlash;

yoshi va avlodlarining kelib chiqishiga qarab xorijiy zotli va mahalliy echkilarining eksterer va indeks ko‘rsatkichlari dinamikasini o‘rganish;

tadqiqotning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti xorijdan keltirilgan «Zaanen», «Mursia-granada» zotli va mahalliy echkilar, takalar, ularning avlodlari, go‘sht, sut namunalaridan iborat.

Tadqiqotning predmeti xorijdan keltirilgan «Zaanen», «Mursia-granada» zotli va mahalliy echkilar mahsuldorligiga ekologik omillarning ta‘siri, biologik, mahsuldorlik ko‘rsatkichlari, yaylov sharoitida echkilarni saqlash va oziqlantirish, go‘sht, sut mahsuloti hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotning uslubiy asosini sut echkichiligi sohasidagi mahalliy va xorijiy olimlarning umumqabul qilingan uslubiyatlari, zootexnikaviy, biologik va fiziologik tadqiqot usullari, tadqiqot natijalarining ishonchlilik darajasini aniqlashda eksperimental hayvonlarning yetarli bosh soni, raqamli materialni biometrik qayta ishlash, sertifikatlangan zamonaviy asbob-uskunalar va umume‘tirof etilgan tadqiqot usullaridan hamda tadqiqotlarni go‘sht mahsuldorligi P.I.Viktorov, umumiy qabul qilingan uslublar asosida va statistik (o‘rtacha arifmetik ko‘rsatkich, uning hatosi, ishonchlilik darajasi) ko‘rsatkichlar E.K. Merkureva usullari asosida, shuningdek echkilar go‘shtning so‘yim ko‘rsatkichlari Butun ittifoq chorvachilik ilmiy tadqiqot instituti usullari asosida aniqlangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor, Shimoliy Qoraqalpog‘iston sharoitida turli xil saqlash texnologik usullardan foydalanib, mahalliy, chetdan keltirilgan «Zaanen» va «Mursia-granada» zotli echkilar sut va go‘sht mahsuldorligini oshirishning ilmiy asoslari ishlab chiqilgan;

turli oziqlanish va saqlash sharoitlarining echkilarining reproduktiv qobiliyatiga ta'siri aniqlanganda, ularning serpushtligi mahalliy echkida 116 %, «Zaanen» zotida 216 % va «Mursia-Granada» zotida 200 % ni tashkil qilishi aniqlangan;

turli saqlash sharoitida 10 kunlik «Zaanen» va «Mursia-granada» zotli echkilarining sut mahsuldorligi yuqoriligidan foydalanib, 60 kunlikka qadar «ajratish-emdirish» usulida saqlangan holda har bir ona echkidan qo'shimcha 2,0-2,5 litr/kun sut olish mumkinligi isbotlangan;

turli zotli echkilarining go'sht mahsuldorligini oshirishda 9-10 oylik takachalarni bo'rdoqilash orqali «Zaanen» zotli takachalardan 44,8 kg, «Mursia-granada» zotidan 41,7 kg, mahalliy echkidan 30,5 kg go'sht yetishtirilganligi aniqlangan;

echkilar sutdorligining yuqoriligi sababli turli zotli echkilardan sut ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi «Mursia-granada» zotida 27,8 % ni, «Zaanen» zotida 44,4 % ni tashkil qilishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

«Zaanen», «Mursia-Granada» va mahalliy echkilarining yoshi, kelib chiqishiga qarab tirik vazni, eksterer va indeks ko'rsatkichlari dinamikasi aniqlangan;

yosh hayvonlarni boqish, go'sht va sut ishlab chiqarishning texnologik jarayoni belgilab berilgan;

naslli echkilar ishlab chiqarish samaradorligiga, echki go'shti va sutining ishlab chiqarishini va rentabelligini oshirishga erishilgan;

olingan natijalar yoshi, kelib chiqishiga qarab «Zaanen», «Mursia-Granada» va mahalliy echkilarining eksterer va indeks ko'rsatkichlari dinamikasini o'rganish asosida zotli echkilarni sifat ko'rsatkichlarini yanada takomillashtirish uchun asos bo'lib xizmat qilishi asoslangan;

xorijdan keltirilgan echkilarni yangi saqlash sharoitlarda moslashuvchanligini va bosh sonini ko'paytirish bilan shug'ullanadigan fermer xo'jaliklari tomonidan naslchilik ishlarining istiqbolli rejasini ishlab chiqarishning texnologik xaritasini amaliyotda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotlarni bajarishda zamonaviy usullardan foydalanilganligi, olingan raqamli ma'lumotlarga variatsion statistik usullarida biometrik ishlov berilganligi, tadqiqot natijalari Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi aprotatsiya komissiyasi tomonidan ijobiy baholanganligi, shuningdek olingan natijalarning nufuzli xalqaro va mahalliy jurnallarda nashr etilganligi hamda respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilinganligi, ilmiy ishlanmalarning amaliyotga joriy etilib, dalolatnomalar tuzulib tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Qoraqalpog'iston sharoitida mahalliy va xorijdan keltirilgan

«Zaanen», «Mursia-Granada» zotli echkilarning moslashuvchanligini o'rganish asosida ularning go'sht va sut mahsuldorligini oshirish usuli, o'z navbatida urchitish texnologiyasiga bog'liqligi, uloqlarni turli texnologiyalarda asrashning afzalliklari nazariy jihatdan asoslanganligi, echkilarni urchitishning ilmiy asoslangan samarali texnologiyalari tavsiya etilganligi hamda ularning muhim seleksion belgilarining namoyon bo'lishi, o'zgaruvchanligi va genetik parametrlarini aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati turli zot echkilarni har xil saqlash sharoitida parvarishlash va samarali urchitishning tajribalar asosida isbotlanganligi, ularning go'sht va sut mahsuldorligini mahalliy sharoitda oshirish texnologiyalarini ishlab chiqilganligi, uloqlarning optimal muddatlarda tug'ilishini ta'minlash, uloqlarni parvarishlashning «emdirish-ajratish» texnologiyasining takomillashtirilganligi, ularni tug'ilgan yilida semirtirib go'sht ishlab chiqarishda foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish usuli amaliyotga tavsiya etilganligi bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida xorijiy zotli va mahalliy echkilarning biologik hamda mahsuldorlik ko'rsatkichlarini takomillashtirish bo'yicha o'tkazilgan ilmiy-tadqiqot natijalari asosida:

turli zotli echkilarni har xil saqlash sharoitida go'sht mahsuldorligini oshirishning resurstejamkor usuli Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumanidagi «Jarimbetov Junus» chorvachilik fermer xo'jaligida joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025-yil 27-maydagi № 33/02-05-679 son ma'lumotnomasi). Natijada nazorat guruhiga nisbatan tajribadagi «Zaanen» zotli echkilar go'sht mahsuldorligi 27,5 kg ga, «Mursia-Granada» zotli echkilarda 25,9 kg ga ko'payib, rentabellik darajasi, o'z navbatida 94,8 va 92,0 foizni tashkil etgan;

mahalliy va xorijdan keltirilgan «Zaanen», «Mursia-Granada» zotli echkilarning har xil saqlash sharoitida sut mahsuldorligini oshirish usuli Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumanidagi «Pirnazar ota» chorvachilik fermer xo'jaligida joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025-yil 27-maydagi № 33/02-05-679 son ma'lumotnomasi). Natijada nazoratga nisbatan tajriba guruhidagi «Zaanen» zotli echkilar sut mahsuldorligi 431,4 kg ga va «Mursia-Granada» zotida esa 335,7 kg ga oshishiga erishilib, rentabellik darajasi esa 44,4 va 27,8 foizni tashkil etgan;

«Zaanen», «Mursia-Granada» zotli hamda mahalliy echkilarning turli saqlash sharoitida serpushtligini oshirish usuli Qoraqalpog'iston Respublikasi Qorao'zak tumanidagi «Panaev Farms» ko'p tarmoqli fermer xo'jaligida joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025-yil 27-maydagi № 33/02-05-679 son ma'lumotnomasi). Natijada nazoratga nisbatan tajriba guruhidagi echkilarning serpushtiligi «Zaanen» zotli echkilarda bir bosh hisobiga olingan uloqlar 2,16 boshga va rentabellik darajasi 116 foizga, «Mursia-Granada» zotli echkilarda esa, bir bosh echkiga

olingan uloqlar 2,0 boshga oshgan bir vaqtda rentabellik darajasi 100,0 foizga oshish imkonini bergan;

turli zotli echkilarni har xil saqlash sharoitida go'sht mahsuldorligini oshirishning resurstejamkor usuli Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumanidagi «Ko'kcha Nasl Chorva» fermer xo'jaligida joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025-yil 27-maydagi № 33/02-05-679 son ma'lumotnomasi). Natijada nazorat guruhiga nisbatan tajribadagi «Zaanen» zotli echkilar go'sht mahsuldorligi 27,5 kg ga, «Mursia-Granada» zotli echkilarda 25,9 kg ga ko'payib, rentabellik darajasi 94,8 va 92,0 foizni tashkil etgan;

xorijdan keltirilgan «Zaanen» va «Mursia-Granada» zotli echkilarning turli saqlash sharoitida serpushtligini oshirish usuli Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumanigi «QR Universal Eksport Invest» fermer xo'jaligida joriy qilingan. (Qoraqalpog'iston Respublikasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025-yil 27-maydagi № 33/02-05-679 son ma'lumotnomasi). Natijasida mahalliy echkilardan 1 boshiga 1,16 bosh, «Zaanen» zotli echkilardan 2,16 va «Mursia-Granada» zotidan 2,0 boshdan uloq olingan bo'lib, mahalliy zotga nisbatan mos tarzda 1,0 va 0,84 bosh ko'p uloq olingan. Serpushtlikni oshirish bo'yicha bir bosh hisobiga olingan sof foyda zotlar kesimida 8,8; 63,8 va 55,0 ming so'mni, rentabellik darajasi esa 16,0; 116,0 va 100,0 foizga oshishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari Qoraqalpog'iston Respublikasi Qorao'zak tumani «Panaev farms» fermer xo'jaligining ishlab chiqarish yig'ilishlarida (2020-2023 yy.), Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali (2020-2023 yy.), Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy kengashlarida (2024 y.) hisobot yig'ilishlarida hamda 5 ta xalqaro, 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 1 ta tavsianoma va 1 ta monografiya, 28 ta ilmiy maqolalar, shundan xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamlarida 11 ta, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan e'tirof etilgan respublika ilmiy jurnallarida 17 ta maqola, jumladan 6 tasi respublika va 11 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, oltita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 186 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dunyoda echkichilikning ahamiyati, ulardan olinadigan mahsulotlar keltirilgan, tadqiqot ishlarining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalar ifodalangan, obyekt va predmet aniqlangan, fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarga mosligi ko'rsatilgan;

tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va olingan natijalarning ishonchliligi belgilangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati, joriy etish va aprotatsiya natijalari ko'rsatilgan, chop etilgan ishlar va dissertatsiya ishining tuzilishi haqida ma'lumotlar ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning «**Adabiyotlar sharhi**» deb nomlangan birinchi bobida dunyoda va O'zbekistonda sut yo'nalishidagi echkilarning hozirgi holati va rivojlanishi xorijiy va Respublikamiz soha mualliflarining ko'pchilik ilmiy ishlarining tahlili asosida, echkilarning o'ziga xos biologik xususiyatlarini ko'rsatuvchi keng ko'lamlı materiallar va kelib chiqishi va dunyoda tarqalishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan, echkichlikdan olinadigan sut va go'sht mahsulotlari bo'yicha mualliflarning fikr-mulohazalari bildirilgan. Echkilarning adaptiv xususiyatlari, naslchilikning, atrof-muhitdagi roli, va omillarining har xil mahsuldorlik yo'nalishidagi echkilar tiplarining tuzilishi, zaanen va mursia-granada echki zotlarining xususiyatlari, mahalliy zot aborigen hayvonlarning ahamiyati va roli ko'rsatilgan. Echki va sigir sutining sifati qiyosiy baholangan. Respublikamizda va xorijda ushbu sohalarda o'tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalariga urg'u berilgan va tahlil qilingan, turli zotdagi echkilarning sut va go'sht mahsuldorligi, sut sifati tahlil qilingan. Qoraqalpog'istonda echkilarni urchitishning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati ko'rsatilgan.

Ikkinchi bob «**Ishning bajarilish o'rni, materiali va uslublari**»da tajriba tadqiqot ishlarining 2020-2023-yillari Qoraqalpog'istonning Qorao'zak tumani «Panaev Farms» fermer xo'jaligida olib borildi, ushbu hududning yaylov iqlim sharoitlari tarifi keltirildi.

Hayvonlarning o'sish va rivojlanishi tarozi, o'lchash tayoqchasi, sirkul va tasmalar yordamida umumiy uslublarga ko'ra tug'ilganida, besh, o'n ikki va o'n sakkiz oylik yoshlarda jussasini o'lchash orqali o'rganildi; uzun oyoqlilik, tana ko'rsatkichlari, kenglik va suyakdorlik ko'rsatkichlari aniqlandi. Bir vaqtning o'zida tirik vaznining mutlaq, o'rtacha-kunlik va qiyosiy ortishi aniqlandi, mahalliy va chetdan keltirilgan zaanen va mursia-granada zotli echkilar tavsifi berildi.

Echkilarning sut mahsuldorligi (BJChITI 1998) uslubiga ko'ra har oyda o'tkaziladigan va o'sha davrdagi sutning kimyoviy tarkibini (yog', suv va quruq elementlar, uglevod, oqsillar) aniqlash uchun sut namunalari olinadigan nazorat uslublari orqali aniqlandi. Echkilarning bosh soni va mahsuldorligi 100 bosh ona echkining uloqlari miqdoriga asoslab aniqlandi.

Echkilarning go'sht mahsuldorligi 8, 18 oylik va katta yoshdagi echkilarda aniqlandi. Har yoshga mansub 3 hayvon (BJChITI 1985) uslubiga ko'ra so'yildi. Shu orqali go'sht va yog' massasi, so'yim chiqimi, go'shtning morfologik va kimyoviy tarkibi aniqlandi.

Go'sht va sutning kimyoviy tarkibi sifatini aniqlash Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahri veterinariya sanitariya ekspertisasi laboratoriyasida olib borildi. Fiziologik ko'rsatkichlarni o'lchash va qon namunalari olish 3-4 yoshdagi echkilarda bahor (aprel), yoz (iyul), kuz (oktabr) va qish (yanvar) oylarida kunduzgi vaqtlarida (14.00-16.00) amalga oshirildi.

Tadqiqot olib borish jarayonida tajriba uchun ajratilgan echkilar yil bo'yi mobaynida turli variantlarda saqlanib, har xil sharoitlarda saqlandi va taqqoslandi.

Echkilarni urchitish samaradorligi olinadigan mahsulotlarning har xilligi, ishlab chiqarishdagi harajatlar va rentabellik darajasining keyingi foizlarini hisoblash bilan sotilish bahosiga ko'ra aniqlandi.

Olingan raqamli material E.K.Merkurevaning o'zgaruvchan statistika uslublari bilan biometrik ishlandi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida «**Echkilarning pushtdorligi, o'sish va rivojlanish ko'rsatkichlari**» ni o'rganish natijalari keltirilgan.


Ilmiy tadqiqot ishlarida turli zot echkilar suruvini qayta to'ldirish ko'rsatkichlari va uloqlarining saqlanuvchanligi 1 jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Turli zot echkilar suruvini qayta to'ldirish ko'rsatkichlari va uloqlarining saqlanuvchanligi (n=25)

Ko'rsatkichlar	Echki zotlari		
	Mahalliy	Zaanen (nazorat guruhi)	Mursia-Granada (tajriba guruhlari)
Urug'lantirilgan echkilar soni, bosh	25	25	25
Tuqqan echkilar soni, bosh	25	25	25
O'lik tug'ilgan uloqlar soni, bosh	-	-	-
Bola tashlagan, bosh	-	-	-
Jami olingan uloqlar	29	54	50
Serpushtlik, %	116,0	216,0	200,0
4 oylikkacha o'lgan uloqlar, bosh	2	1	-
Tirik qolgan uloqlar	27	53	50
Har 100 bosh hisobiga qolgan uloqlar, %	108	216	200
Uloqlarning saqlanuvchanligi, %	92,0	96,0	100,0

1 jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatmoqdaki, uchala zot echkilardan tajribada 25 boshdan echkilar tanlab olinib urug'lantirilgan. Jami olingan uloqlar nazorat guruhidagi Mahalliy zotlarda 29 boshni (116 %), Zaanen zotlilarda 53 boshni (216 %) ni va Mursia-Granada zotlilarda esa 50 boshni (200 %) ni tashkil qilgan. Serpushtlilik bo'yicha Zaanen zotli echkilar boshqa zotlarga nisbatan ustunlik qilganligi qayd etilgan. 4 oylikgacha muddatda o'lgan uloqlar faqat mahalliy (2 bosh) va Zaanen (1 bosh) zotlilarda qayd etildi. Uloqlarning saqlanuvchanligining eng yuqori ko'rsatkichi Mursia-Granada zotlilarda (100 %) kuzatildi, eng past ko'rsatkich mahalliy zotlarda (92 %) va Zaanen zotida o'rtacha ko'rsatkich ya'ni (96 %) ekanligi qayd etildi.



1-rasm. Turli zot katta yoshdagi takalar tana o'lchamlari, sm.


1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, turli zot katta yoshdagi takalar o'lchamlari turlicha bo'lar ekan. Eng yuqori ko'rsatkichlar Zaanen zotli takalarda kuzatildi, eng past ko'rsatkichlar Mursia-Granada zotli takalarga to'g'ri keldi, bu ko'rsatkich bo'yicha mahalliy takalari oraliq o'rinni egallagan.

2-rasm ma'lumotlari nisbati bo'yicha ham tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, turli zot katta yoshdagi ona echkilar o'lchamlari nisbati katta yoshdagi takalar kabi kuzatildi. Eng yuqori ko'rsatkichlar Zaanen zotli ona echkilarda kuzatildi, eng past ko'rsatkichlar Mursia-Granada zotli ona echkilarga to'g'ri keldi, bu ko'rsatkich bo'yicha mahalliy zot ona echkilari oraliq o'rinni egallagan.

2-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatmoqdaki, barcha zotli takalarning old va orqa oyoqlari echkilarnikiga nisbatan ancha uzun bo'ldi, Zaanen va Mursia-Granada zotli echkilar yaxshi rivojlangan ko'krak qafasiga, dumg'oz bilan yag'rin balandligining yaqqol nisbatiga va yirik bo'lgan suyak tizimiga hamda yaxshi shakllangan tana tuzilishiga ega.

Ta'kidlash joizki, tana tuzilishi ko'rsatkichlarini hisoblab chiqish bilan tananing kattaligi, o'lchamlariga oid o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari chetdan keltirilgan Zaanen va Mursia-Granada zotlari Qoraqalpog'istonning mahalliy echkilariga nisbatan yirik o'lchamlari, uzun oyoqlari, yaxshi rivojlangan suyaklari va ko'krak qafasi bilan, nisbatan tez balog'atga yetishi bilan tavsiflanadi, oziqlantirish va saqlashning maqbul sharoitlarida yaxshi semiradi.

Barcha ushbu o'ziga xos belgilar tabiiy va sun'iy tanlov oqibati hisoblanadi va ularning mahalliy og'ir iqlim va yaylov sharoitlariga yuqori darajada tez moslashuvchanligini ko'rsatadi.



2-rasm. Turli zot katta yoshdagi ona echkilar tana o'lchamlari, sm.


2 jadval

Turli zotli katta yoshdagi hayvonlarning tana indekslari, % n=25

Ko'rsatkichlar	Echki zotlari					
	Mahalliy		Zaanen		Mursia-Granada	
	Takalar	Ona echkilar	Takalar	Ona echkilar	Takalar	Ona echkilar
Cho'zinchoqlik	107,3	86,9	118,7	103,6	126,0	119,6
Zichlik	124,6	122,5	103,7	99,8	94,1	91,2
Suyakdorlik	12,6	10,3	14,8	13,1	14,3	13,6
Uzunoyoqlilik	64,8	58,2	58,0	50,8	54,4	49,9
Bo'yodorlik (o'suvchanlik)	101,5	100,8	112,5	102,9	114,4	109,2
Ko'krakdorlik	66,8	62,4	57,9	54,4	56,4	51,9

3-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, rasmdagi uloqlarning tirik vazn bo'yicha o'sish parametr ko'rsatkichlaridan shuni ko'rish mumkinki, 1-18 oylik yosh oralig'ida tajribadagi turli zot uloqlarda turlicha ekanligi, bir xil jadallikda tirik vazn olganligini ko'rish mumkin. Zaanen zotli urg'ochi uloqlar barcha davrlarda yuqori ko'rsatkichlarga ega ekanligi ko'rinib turibti.

Uloqlarning 4-18 oylik yosh oralig'idagi tirik vazn bo'yicha o'sish parametr mutanosibligida o'zgarish kuzatilib, urg'ochi Mursia-Granada zotli uloqlar boshqa zotli tengqurlariga nisbatan oldinga o'tib ketganlari qayd etildi. Demak, Zaanen zotiga nisbatan 0,4 kg dan 4,3 kg gacha va mahalliy echkiga nisbatan esa, 9,2 kg dan 6,6 kg gacha ustunligi aniqlandi.



3-rasm. Turli zotli urg'ochi uloqchalarning tirik vazn o'sish dinamikasi, kg

3-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatmoqdaki, turli zot va yoshdagi echkilar poda tarkibidagi konstitutsiya tiplari salmog'i turlicha ekan. Barcha yoshdagi turli zot echkilar podasi tarkibidagi mustahkam konstitutsiya tipli echkilar 1-2 foiz atrofida o'zgarib turishligi aniqlandi, lekin zotlar o'rtasidagi farq kattaroq ekanligidan dalolat berib turibti, jumladan 1,5 yoshli Mursia-Granada zotli echkilarning poda tarkibidagi salmog'i mahalliy zotlarga nisbatan 16,1 % ga, Zaanen zotlilarga nisbatan esa, 3,4 % ga yuqori ekanligi aniqlandi.

3-jadval

Turli zotli echkilarning poda tarkibidagi konstitutsiya tiplari salmog'i, %

Echkilar yoshi	Jami bosh	Konstitutsiya tipi					
		Mustahkam		Zich		Nozik	
		Bosh	%	Bosh	%	Bosh	%
Mahalliy							
1,5 yosh	65	42	64,6	14	21,5	9	13,9
2,5- 3,5	78	51	65,4	18	23,1	9	11,5
5,5- 6,5	89	59	66,3	20	22,5	10	11,2
Jami:	232	152	65,5	52	22,4	28	12,1
Zaanen							
1,5 yosh	44	34	77,3	7	15,9	3	6,8
2,5 -3,5	32	25	78,1	5	15,6	2	6,3
5,5- 6,5	27	21	77,8	4	14,8	2	7,4
Jami:	103	80	77,7	16	15,4	7	6,8
Mursia-Granada							
1,5 yosh	62	50	80,7	9	14,5	3	4,8
2,5- 3,5	54	43	79,6	8	14,8	3	5,6
5,5- 6,5	32	26	81,3	5	15,6	1	3,1
Jami:	148	119	80,4	22	14,9	7	4,7

Ushbu farq echkilarning 2,5-3,5 va 5,5-6,5 yoshli davrlarda ham deyarli shunday tendensiyada farq qildi. Zich va nozik konstitutsiya tipidagi echkilar salmog'i o'z navbatida mahalliy echkilarda chetdan keltirilgan Zaanen va Mursia-Granada zotlariga nisbatan poda tarkibida ko'pligi bilan ajralib turdi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, bunday ko'rsatkich ma'lumotlari Mursia-Granada va Zaanen zotli echkilarda uzoq muddatli seleksiya-naslchilik ishlari yuqori darajada olib borilganligidan dalolat beradi.

4 jadval

Turli zotli echkilarning fiziologik ko'rsatkichlari, ($\bar{X} \pm S_x$) (n=10)

Echki zotlari	Tana harorati	Nafas olishi, marta/daqiq	Puls marta/daqiq
Qishda			
Mahalliy	38,1±1,6	26,7±0,98	72,2±1,4
Zaanen (tajriba guruhi)	39,2±1,3	29,3±1,5	74,7±1,1
Mursia-Granada (nazorat guruhi)	38,3±1,8	28,4±0,96	77,2±1,3
Bahorda			
Mahalliy	38,7±1,1	27,8±1,4	72,6±1,6
Zaanen (tajriba guruhi)	39,5±1,8	30,2±1,3*	78,8±1,6
Mursia-Granada (nazorat guruhi)	38,8±1,5	28,5±1,5	77,1±1,7
Yozda			
Mahalliy	39,7±1,9	34,3±1,3	92,8±1,7
Zaanen (tajriba guruhi)	39,9±1,8	37,7±1,6*	84,4±1,9
Mursia-Granada (nazorat guruhi)	38,9±1,6	36,2±1,4	84,3±1,6
Kuzda			
Mahalliy	38,4±1,7	29,6±1,7	82,4±1,6
Zaanen (tajriba guruhi)	39,4±1,1	32,1±1,5*	79,5±1,9
Mursia-Granada (nazorat guruhi)	38,8±1,7	31,0±1,7	81,4±1,8

Eslatma: * P>0,95;

Tana harorati fasllar mobaynida Zaanen zotli echkilarda eng yuqori (39,2±1,3; 39,5±1,8; 39,9±1,8; 39,4±1,1) ekanligi kuzatildi va bu ko'rsatkich bu zotga xos xususiyat ekanligidan dalolat beradi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha sezilarli bo'lmasda Mursia-Granada zotlilar (38,3±1,8; 38,8±1,5; 38,9±1,6; 38,8±1,7) nazorat guruhidagi mahalliy echkilarga (38,1±1,6; 38,7±1,1; 39,7±1,9; 38,4±1,7) nisbatan yuqori tana haroratga ega ekanligi kuzatildi.

Daqiqa mobaynida echkilarning nafas olishini tahlil qiladigan bo'lsak, qish faslida nazorat guruhidagi mahalliy echkilarda 30,3 marta, Zaanen zotlilarda 24,7 martani tashkil qildi.

Bu ko'rsatkich bo'yicha Mursia-Granada zotlilar 28,4 martani tashkil qilib oraliq o'rinni egallashdi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobida «Turli zotli echkilarning sut mahsuldorligi» ni o'rganish natijalari keltirilgan. Tadqiqotlarda nafaqat mahalliy, balki chetdan keltirilgan Zaanen va Mursia-Granada zotli echkilar yelinining morfofiziologik ko'rsatkichlari ham aniqlandi.

5-jadval

Turli zotli echkilar yelinining morfologik ko'rsatkichlari, sm (n=10)

Holati	Echkilar soni		
	Mahalliy	Zaanen	Mursia - Granada
Yelin aylanasi			
Sog'ishdan oldin	36,6±0,65	54,6±0,67***	51,5±0,56***
Sog'ishdan keyin	29,2±0,63	45,2±0,56***	44,7±0,59***
Yelin uzunligi			
Sog'ishdan oldin	13,6±0,57	25,4±0,58***	22,8±0,51***
Sog'ishdan keyin	9,8±0,56	22,0±0,53***	19,8±0,52***
Yelin chuqurligi			
Sog'ishdan oldin	14,4±0,43	23,7±0,48***	21,8±0,41***
Sog'ishdan keyin	11,7±0,45	20,2±0,47***	17,8±0,45***
Chap so'rg'ish uzunligi			
Sog'ishdan oldin	4,9±0,11	7,7±0,14***	6,5±0,15***
Sog'ishdan keyin	5,9±0,18	8,2±0,16***	7,6±0,17***
O'ng so'rg'ich uzunligi			
Sog'ishdan oldin	4,6±0,12	7,34±0,18***	7,1±0,16***
Sog'ishdan keyin	6,3±0,14	8,3±0,19***	8,0±0,17***
So'rg'ichlar oralig'i			
Sog'ishdan oldin	8,9±0,11	15,3±0,28***	14,8±0,24***
Sog'ishdan keyin	6,2±0,14	10,6±0,26***	9,7±0,26***

Eslatma: *** P>0,999;

Bunda, yelin aylanasi; elin uzunligi; yelin chuqurligi; chap va o'ng so'rg'ichlar uzunligi; so'rg'ichlar oralig'i kabi o'lchamlar olindi. Mazkur

o'Ichamlar ikki xil holatda: sut sog'ib olinishidan oldin va sut sog'ib olingandan so'ng o'lchandi.

Olingan raqamli ma'lumotlarga biometrik qayta ishlov berilgan o'rtacha ko'rsatkich ma'lumotlari 5-jadvalda aks ettirilgan.

5-jadval ma'lumotlarini tahlil qilganimizda sut mahsuldorligi bo'yicha irsiy ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan chetdan keltirilgan Zaanen va Mursia-Granada zotli echkilar yelining barcha ko'rsatkichlari mahalliy echkiga nisbatan keskin ravishda farqlanganligi va yuqori darajada rivojlanganligi aniqlandi. Bu xususiyat olingan rasmlarda ham yaqqol ko'rinishga ega.

Yelin aylanasi bo'yicha sog'ishdan oldin va keyin ham yuqori ko'rsatkich Zaanen zotli echkilarda qayd etildi. Bu ko'rsatkich bo'yicha ular mahalliy echkilarga nisbatan sog'ishdan oldin 18,0 sm ga, Mursia-Granada zotiga nisbatan 3,1 sm katta ekanligi qayd etildi.

Sog'ishdan keyin esa ushbu ko'rsatkich 16,0 va 0,5 sm.larni tashkil qildi. Yelining uzunligi bo'yicha taqqoslaydigan bo'lsak Zaanen zoti sog'ishdan oldin mahalliy echkiga nisbatan 11,8 sm ga, Mursia-Granada zotiga nisbatan esa 2,6 sm ga uzunligi, sog'ishdan keyin esa bu ko'rsatkich o'z navbatida 12,2 va 2,2 sm ni tashkil etdi.

Bizning tadqiqotlarimiz laktatsiya davrida turli zot echkilarning sut mahsuldorligiga bag'ishlangan bo'lib, olingan ma'lumotlar 6-jadvalda keltirilgan.

Laktatsiya davomida o'rtacha jami olingan sut mahalliy zotda 204,6 kg ni, zaanen zotida 717,3 kg ni va Mursia-Granada zotini 632,5 kg. ni tashkil qildi. shundan o'rtacha 1 oyli mahalliy echkilarda 29,2 kg, Zaanen zotini 102,5 kg va Mursia-Granada zotini esa 90,4 kg ni tashkil qilganligi hisoblab chiqildi. Shundan e'tiboran kunlik o'rtacha sog'im miqdori mahalliy echkilarda 0,97 kg, Zaanen zotida 3,42 kg va Mursia-Granada zotini 3,01 kg ni tashkil qilganligi qayd etildi.

Quyida 7-jadvalda uloqlar tirik vaznining o'zgarishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. 7-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar tahlili guruhlarda uloqlarning o'sishi bir xil kechmaganligini ko'rsatdi.

Masalan, agar uloqlarning og'iz suti davrida o'sishi taxminan bir xil kechgan bo'lsa (farqi aniq emas), ammo keyinchalik tajriba guruhi uloqlarining foydasiga o'sishdagi doimo ortib borgan farq aniqlandi va mos ravishda 1,2,3 va 4,5 oylik bo'lganda ushbu farq 5,8; 13,9; 14,9 va 15,7 foizni tashkil qildi.

8-jadval ma'lumotlari ko'rsatmoqdaki, yaylovda va qo'shimcha oziqlantirish va saqlash sharoiti bir xil bo'lganda turli zotli echkilarning sut mahsuldorligi har xil bo'lganligining guvohi bo'ldik.

Jumladan, mahalliy echkilarda sut miqdorining yuqori ko'rsatkichi laktatsiya davrining 2 chi oyiga to'g'ri kelgan bo'lsa, Zaanen va Mursia-Granada zotlarini 3 chi oyiga to'g'ri keldi. Miqdor nuqtayi nazardan tajriba guruhlaridagi Zaanen zoti o'rtacha ($127,8 \pm 1,37$) va Mursia-Granada zoti ($112,6 \pm 1,38$) ni tashkil qildi, nazorat guruhidagi mahalliy ona echkilar past ko'rsatkichga ega ekanligi qayd etildi.

Turli zotli echkilarning laktatsiya davridagi sut mahsuldorligi, kg (n=10)

Laktatsiya davri	Uloqlash muddatlari					
	Fevral		Mart		Aprel	
	X±Sx	C _v , %	X±Sx	C _v , %	X±Sx	C _v , %
Mahalliy						
1 oy	32,2±0,27	2,6	35,4±0,26	2,3	36,1±2,7	0,24
2 oy	43,1±0,31	2,3	45,3±0,31	2,2	42,1±0,35	2,6
3 oy	36,1±0,19	1,7	36,8±0,19	1,6	28,1±0,21	2,4
4 oy	28,2±0,17	1,9	28,1±0,16	1,8	23,0±0,15	2,1
5 oy	24,7±0,27	3,5	25,5±0,21	2,6	28,5±0,18	2,0
6 oy	19,3±0,21	3,4	21,8±0,23	3,3	24,6±0,19	2,4
7 oy	13,9±0,22	5,0	18,7±0,21	3,5	22,2±0,22	3,1
Jami	197,5		211,6		204,6	
Zaanen						
1 oy	59,6±1,62***	8,6	65,8±1,11***	5,3	67,9±1,64***	7,6
2 oy	74,2±1,59***	6,8	78,4±1,09***	4,4	85,3±1,56***	5,8
3 oy	119,4±1,47***	3,9	129,5±1,21***	3,0	134,4±1,43***	3,4
4 oy	149,3±1,41***	3,0	158,9±1,21***	2,4	173,5±1,49***	2,7
5 oy	114,6±1,23***	3,4	119,6±1,14***	3,0	126,7±1,46***	3,6
6 oy	85,9±1,98***	7,3	91,3±1,15***	4,0	95,8±1,47***	4,8
7 oy	67,7±2,02***	9,4	74,6±1,17***	4,9	79,4±1,51***	6,0
Jami	670,7		718,1		763,0	
Mursia Granada						
1 oy	47,6±1,53***	10,2	54,7±1,21***	7,0	57,6±1,26***	6,9
2 oy	69,2±1,47***	6,7	75,8±1,32***	5,5	82,1±1,32***	5,1
3 oy	101,4±1,37***	4,3	112,8±1,43***	4,0	123,7±1,34***	3,4
4 oy	127,3±1,32***	3,3	140,2±1,12***	2,5	163,5±1,12***	2,2
5 oy	90,6±1,11***	3,9	96,7±1,11***	3,6	104,9±1,36***	4,1
6 oy	78,7±1,76***	7,1	84,3±1,23***	4,6	88,9±1,12***	4,0
7 oy	59,7±2,09***	11,1	66,4±1,28***	6,1	71,3±1,13***	5,0
Jami	574,5		630,9		692,0	

Eslatma:***P>0,999

7-jadval

Saqlash sharoitidan kelib chiqib turli zotli echkilardan olingan uloqlar tirik vaznining yoshiga doir o'zgarishi, kg

Uloqlar-ning yoshi	Mahalliy n=27		Zaanen (tajriba guruhi) n=53		Mursia -Granada (nazorat guruhi) n=50	
	X±Sx	C _v , %	X±Sx	C _v , %	X±Sx	C _v , %
Tug'il-ganda	2,6±0,07	0,14	3,8±0,04 ***	0,08	3,6±0,05 **	0,1
20 kun	3,3±0,06	0,09	5,2±0,07***	0,1	5,0±0,06*	0,08
1 oy	4,8±0,17	0,18	7,7±0,19***	0,18	7,1±0,17**	0,17
2 oy	6,3±0,23	0,19	12,1±0,21***	0,13	11,4±0,21**	0,13
3 oy	8,1±0,21	0,13	15,7±0,25***	0,12	15,4±0,24**	0,11
4,5 oy	9,7±0,24	0,13	18,5±0,22***	0,09	18,9±0,23 **	0,09

Eslatma: *P>0,95; **P>0,99; ***P>0,999

8-jadval

Turli zotli echkilar saqlash texnologiyasining sut mahsuldorligiga bog'liqligi, kg (X±Sx) n=10

Laktatsiyani hisobga olish muddatlari	Yaylovda va qo'shimcha oziqlantirish va saqlash sharoiti bir xil	
Mahalliy		
Uloqlar tug'ilgan vaqtda	24,6±0,87	11,2
1 -oylik	34,6±0,93	8,5
2 -oylik	43,5±0,32	2,3
3 -oylik	33,7±0,20	1,9
Zaanen (tajriba guruhi)		
Uloqlar tug'ilgan vaqtda	46,8±1,40***	9,5
1 - oylik	64,4±1,46***	7,2
2 - oylik	79,3±1,41***	5,6
3 - oylik	127,8±1,37***	3,4
Mursia-Granada (nazorat guruhi)		
Uloqlar tug'ilgan vaqtda	41,6±1,40***	10,6
1 - oylik	53,3±1,33***	7,9
2 - oylik	75,7±1,37***	5,7
3 - oylik	112,6±1,38***	3,9

Eslatma:***P>0,999

9-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, unga ko'ra turli vaqtda uloqlagan echkilar sutining kimyoviy tarkibi taxminan bir xil edi va bir vaqtning o'zida ayrim farqlar ham aniqlandi. Masalan, mart va aprel oyida uloqlagan echkilarning suti tarkibida birmuncha suv ko'proq (1,9 va 1,3 %) va yog' kamroq (0,9 va 0,6 %) bo'ldi. Qand va kul miqdori taxminan bir xillikni tashkil etdi.

9-jadval

Turli zotli echkilar sutining kimyoviy tarkibi, %

Uloqlarning tug'ilgan muddatlari	Suv	Quruq moddalar					Zichligi	Nor-donligi	Kaloriyaligi	
		Jami	Shundan						Kkal	kJ
			Yog'	Oqsil	Qand	Kul				
Mahalliy										
Fevral	85,8	14,2	4,7	4,2	4,5	0,8	1,03	14,2	777,5	3250,0
Mart	83,9	16,1	5,6	4,69	5,0	0,9	1,03	13,4	900,4	3780,4
Aprel	85,2	14,8	5,0	4,5	4,45	0,85	1,02	15,0	815,1	3420,1
Zaanen										
Fevral	87,72	12,28	4,0	3,1	4,36	0,82	1,1	12,4	875,5	3677,1
Mart	87,9	12,1	3,9	3,0	4,29	0,91	1,09	13,1	889,4	3735,5
Aprel	87,5	12,5	4,2	2,9	4,54	0,86	1,08	12,9	891,3	3743,5
Mursia-Granada										
Fevral	85,73	14,27	5,3	3,7	4,4	0,87	1,2	11,2	995,8	4182,4
Mart	86,01	13,99	5,1	3,5	4,5	0,89	1,09	10,6	911,3	3827,5
Aprel	86,25	13,75	5,5	3,2	4,2	0,85	1,3	10,1	1023,6	4299,1

Qoraqalpog'istonning mahalliy echkilar sutining kimyoviy takribini sut yo'nalishli chetdan keltirilgan Zaanen va Mursia-Granada echkilar suti bilan solishtirganda, mahalliy echkilar garchi kam sut bersada, ammo ularning suti quyuuq va tarkibida ko'p miqdorda yog', oqsil va qand mavjud.

Agar 10 kunlik uloqchalarni 60 kunlikka qadar ajratish-emdirish usulida o'stirishda echkilarni qisman sog'ish tashkillashtirilsa (o'stirishning ajratish davrida) kechki payt uloqchalarga sutning yarmi (yelinning bir tomoni) emdirilsa, qolgani esa sog'ib olinsa, unda har bir ona echkidan qo'shimcha 2,0-2,5 litr sut sog'ib olish mumkin. Oqsil va qand miqdori bo'yicha ham mahalliy echkilar suti ustunlik qilgan.

Dissertatsiyaning beshinchi bobida «**Turli xil saqlash texnologiyasi sharoitida go'sht mahsuldorligining shakllanishi**» ni o'rganish natijalari keltirilgan.

Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, mahalliy takachalarning go'sht mahsuldorligi so'yim yoshiga bevosita bog'liq bo'lar ekan.

Takachalarning tug'ilgan yilidagi so'yim ko'rsatkichlari, n-3

Ko'rsatkichlar	So'yim yoshi (oy)	
	4,0-4,5	9-10
Mahalliy		
So'yishdan oldingi vazni, kg	12,3±0,08	18,4±0,16
Yangi so'yilgan go'sht, kg	6,35±0,12	9,36±0,13
Ichki yog', kg	0,17±0,03	0,54±0,02
So'yilgan go'sht ichki yog' bilan, kg	6,52±0,1	9,90±0,13
Suyim chiqimi, %	53,0	53,1
Mushak to'qimalarining kimyoviy tarkibi, %		
Suv	71,1	66,4
Quruq moddalar	28,9	33,6
Yog'	7,5	8,9
Oqsil	17,4	21,2
Kul	4,0	3,5
Zaanen		
So'yishdan oldingi vazni, kg	24,4±0,09***	32,8±0,18***
Yangi so'yilgan go'sht, kg	12,62±0,11***	16,73±0,13***
Ichki yog', kg	0,41±0,02***	0,86±0,03***
So'yilgan go'sht ichki yog' bilan, kg	13,03±0,13***	17,59±0,12***
Suyim chiqimi, %	53,4	53,6
